QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-iyul 215-4-58-Q/24 Qamashi tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora–tadbirlari to‘g‘risida

2024- yil Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, Qamashi Davlat o‘rmon xo‘jaligining 2024-yil 10-iyundagi 363-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil 5-son, 122-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 22- noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmonlarni himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami, 1999- yil 11-son 68-modda)ga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993- yil, 9-son, 320-modda)ning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. 2024-yil yoz, kuz mavsumlarida Davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘shni fermer va shirkat xo‘jaliklari hamda mahallalar hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Qamashi Davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmonchilik bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi Davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi va Qiziltom o‘rmon bo‘limi o‘rmonchisi (M.Qarshiyev, Sh.Allayorov, R.Rajabov, A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) Azlartepa MFY (F.Ostonov), Qoratepa MFY (S.Xoliqov), Qarabog‘ MFY (B.Egamberdiyev), Quyi Yangi qishlog‘i MFY (B.Ortiqov), Loyqasoy MFY (Sh.Esanov), Oqguzar MFY (G‘.Bakiyev), Qiziltepa

MFY (S.Ko‘charov), Boburtepa MFY (Y.Hakimov), Changak MFY (O‘.Abrayev), Qizilqishloq MFY (A.Bo‘riyev), Chuqurqishloq MFY (M.Oynazarov), O‘rta dara MFY (Z.Umarov), Katta O‘ra MFY (F.Tursunov), Bog‘obod MFY (X.Karimov), Oybek MFY (X.G‘afurov), Oqqishloq MFY (Q.Xudoyqulov), Guliston MFY (A.Boboyev) raislari yong‘in xavfni oldini olishning barcha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Qamashi Davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Qamashi tuman fovqulodda vaziyatlar bo‘limi (SH.Diyorov), tuman tibbiyot birlashmasi (Z.Qandaxarov), “O‘ztelekom AK Qamashi tuman filiali (A.Berdimurodov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi o‘rmonchisi (M.Qarshiyev, Sh.Allayorov, R.Rajabov, A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) Azlartepa MFY (F.Ostonov), Qoratepa MFY (S.Xoliqov), Qarabog‘ MFY (B.Egamberdiyev), Quyi Yangi MFY (B.Ortiqov), Loyqasoy MFY (SH.Esanov), Oqguzar MFY (G‘.Bakiyev), Qiziltepa MFY (S.Ko‘charov), Boburtepa MFY (Y.Hakimov), Changak MFY (O‘.Abrayev), Qizilqishloq MFY (A.Bo‘riyev), Chuqurqishloq MFY (M.Oynazarov), O‘rta dara MFY (Z.Umarov), Katta O‘ra MFY (F.Tursunov), Bog‘obod MFY (X.Karimov), Oybek MFY (X.G‘afurov), Oqqishloq MFY (Q.Xudoyqulov), Guliston MFY (A.Boboyev) raislari birgalikda Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskuna va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Qamashi Davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Qamashi tuman fovqulodda vaziyatlar bo‘limi (SH.Diyorov), tuman tibbiyot birlashmasi (Z.Qandaxarov), “O‘ztelekom AK Qamashi tuman filiali (A.Berdimurodov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi o‘rmonchisi (M.Qarshiyev, Sh.Allayorov, R.Rajabov, A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) Azlartepa MFY (F.Ostonov), Qoratepa MFY (S.Xoliqov), Qarabog‘ MFY (B.Egamberdiyev), Quyi Yangi MFY (B.Ortiqov), Loyqasoy MFY (SH.Esanov), Oqguzar MFY (G‘.Bakiyev), Qiziltepa MFY (S.Ko‘charov), Boburtepa MFY (Y.Hakimov), Changak MFY (O‘.Abrayev), Qizilqishloq MFY (A.Bo‘riyev), Chuqurqishloq MFY (M.Oynazarov), O‘rta dara MFY (Z.Umarov), Katta O‘ra MFY (F.Tursunov), Bog‘obod MFY (X.Karimov), Oybek MFY (X.G‘afurov), Oqqishloq MFY (Q.Xudoyqulov), Guliston MFY (A.Boboyev) raislari o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholiga Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi va “Muhofaza etiladigan tabiiy hudular to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarini buzgan

shaxsga nisbatan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Qamashi tumani hokimining 2023-yil 11-iyuldagi 209-4-58-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7.Ushbu qaror ijrosini nazorot qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatisin.

8.Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **X.Usmonov**